Oliy ta'lif muassasalarida talabalarga ma'naviy qadriyat sifatida insonparvarlik tuyg'ularini singdirish prinsiplari.....	572
<b>Xakimova Marxabo O'rqaqona</b>	
Harbiy vatanparvarlik tushunchasi va uning nazariy asoslari .....	576
<b>Xudoqulov Alimjon Obloqulovich</b>	
Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashning texnologiyasi.....	579
<b>Xusenova Sadaqat Botirovna</b>	
Dars jarayonida o'quvchilarning diqqat etishmovchiligini oldini olish .....	585
<b>Yulchiyeva Shoxsanam</b>	
Faktory, влияющие на развитие духовно-эмоционального интеллекта: методы и приёмы его развития на уроках литературы.....	589
<b>Наврузова Е. П.</b>	
Об особенностях применения энергетических терминов на уроках русского языка .....	592
<b>Халикова Мухтарам Набиевна</b>	

# МАКТАБ О'QUVCHILARINING TARIXIY JARAYONLARNI IDROK ETISHIDA BADIY ADABIYOTLARNING O'RNI

**Akbutayeva Nafisa Bozarovna**

JDPU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi  
(tarix) fakulteti 1-kurs magistranti



ORCID: 0009-0001-9819-862X

**Ilmiy rahbar:** Faniya Axmedshina Abzalovna

JDPU, tarix fanlari doktori, professor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mактабда tarix fanini o'qitish jarayonida badiiy adabiyotlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyotlar tarixiy bilimlarni shakllantirish bilan birga, o'quvchilarda milliy-ma'naviy tarbiyani rivojlantirishda ham muhim rol o'yynaydi. Maqolada badiiy matnlarning metodik jihatlari tahlil qilinib, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi asosli tarzda yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy adabiyot, tarixni o'qitish metodikasi, fanlararo integratsiya, pedagogik innovatsiya.

**Abstract:** This article explores the pedagogical significance of using fiction in the process of teaching history at school. Research findings demonstrate that fiction plays a vital role not only in the acquisition of historical knowledge but also in fostering students' national and moral values. The article analyzes the methodological aspects of incorporating literary texts and substantiates their effectiveness in the educational process.

**Key words:** fiction, history teaching methodology, interdisciplinary integration, pedagogical innovation.

**Аннотация:** В статье исследуется педагогическая значимость использования художественной литературы в процессе преподавания истории в школе. Результаты исследований показывают, что художественная литература играет важную роль не только в передаче знаний, но и в формировании национально-нравственных ценностей у учащихся. В статье проанализированы методические аспекты использования художественных текстов и обоснована их эффективность в учебном процессе.

**Ключевые слова:** художественная литература, методика преподавания истории, межпредметная интеграция, педагогические инновации.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda badiiy adabiyotlardan foydalanish o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning hissiy-idrokiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Badiiy asarlar tarixiy voqealarni obrazli va hayotiy shaklda tasvirlab, murakkab tarixiy jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi. Bu esa o'quvchilar tafakkurini chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi.<sup>1</sup>

Ushbu tadqiqot umumta'lim maktablari o'quvchilarini o'rganish asosida olib borilgan bo'lib, uning predmeti sifatida badiiy asarlar orqali tarixiy jarayonlarni idrok etish jarayonlari tanlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o'quvchilarda badiiy matnlar vositasida tarixiy voqealarga nisbatan qiziqish uyg'otish, mazmunli tushuncha hosil qilish va ular bilan hissiy bog'lanishni shakllantirishdan iborat.

Mazkur ishda tarix darslarida badiiy adabiyotlarning didaktik ahamiyati aniqlanib, o'quvchilarning tarixiy voqealarni badiiy obrazlar orqali qanday qabul qilishi tahlil qilingan. Maktab amaliyoti tajribalari asosida badiiy asarlardan samarali foydalanish uslublari ko'rib chiqilgan. Xususan, "Temur tuzuklari", Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" kabi asarlardan tarix darslarida foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

<sup>1</sup> Xolmirzayev A. Tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari. T.: Fan, 2021.56-b

Tadqiqotda tahliliy-uslubiy yondashuv, so'rovnama va test metodlaridan, shuningdek, tajriba-sinov metodidan foydalanilgan. Tadqiqot Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 18-maktabda 2024–2025-o'quv yili mart–aprel oylari davomida amalga oshirildi. Unda 8-sinfdan 54 nafar va 9-sinfdan 57 nafar o'quvchi, jami 111 nafar ishtirokchi qatnashdi.

So'rovnama 10 ta savoldan iborat bo'lib, UNESCO Global Citizenship Education va Wineburg (2018) ishlamalari asoslariga tayangan.<sup>2</sup> U o'quvchilarining milliy qadriyatlarga munosabati, tarixiy shaxslarga nisbatan hissiy reaktsiyalari va darsdagi qiziqish darajasini aniqlashga qaratilgan. Test 15 ta tanlovlidan iborat bo'lib, quyidagi bloklarni o'z ichiga olgan:

- tarixiy tushunchalarini anglash;
- sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash;
- emotsiunal idrok va tarixiy obrazlar talqini.

Mavzular: "Amir Temur va temuriylar davri", "XIX asrda Qo'qon xonligi", "Tarixiy obrazlarning badiiy adabiyyotlarda talqin etilishi" (fakultativ dars). Ushbu metodologik asoslar orqali o'quvchilarning tarixiy tafakkur darajasi, hissiy javoblari va qiziqish omillari o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda tarix va adabiyot fanlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga oid yangi metodik yondashuv ilgari surilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa maktab darslarida interfaol mashg'ulotlar, badiiy asar asosida loyihibiy ishlar tashkil etish hamda tanqidiy savol-javoblar orqali o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish imkoniyatlarini taklif etish bilan belgilanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy adabiyotlar tarixiy voqealarni nafaqat faktlar sifatida yoritibgina qolmay, balki ularning mafkuraviy, madaniy va psixologik jihatlarini ham chuqr olib berish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarga tarixni yuzaki emas, balki mazmunan chuqr va keng qamrovli tarzda tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot doirasida bir qator muhim badiiy asarlar tahlil qilindi. Ular orasida "Temur tuzuklari" XIV asrda davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlarini o'rganishda asosiy manba sifatida alohida o'rinn tutadi. Mazkur asar davlat qurilishi tamoyillari hamda Temur davridagi boshqaruv tizimini yoritishda beqiyos manba hisoblanadi.<sup>3</sup>

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy munosabatlar, madaniy o'zgarishlar hamda milliy o'zlikni anglash masalalarini chuqr aks ettiradi. Bu asar o'sha davrni tushunish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.<sup>4</sup>

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asari esa Temuriylar davrini badiiy talqin qilishning yuksak namunasi bo'lib, unda tarixiy shaxslarning psixologik portretlari hamda davr haqidagi tasavvurlar obrazli va ta'sirchan shaklda namoyon etilgan. Bu jihatlar o'quvchilarga o'sha tarixiy davrni yanada yaqinroq his qilish imkonini yaratadi.<sup>5</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida o'quv jarayonida badiiy adabiyotlarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan turli ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tarixiy-taqqoslash metodi yordamida turli davrlarga oid badiiy asarlarda tarixiy voqealarning qanday aks etgani solishtirildi. Bu metod ular orqali tarixiy haqiqatning qanchalik aniq yoritilganini aniqlashga xizmat qildi.

Pedagogik eksperiment esa 8–9-sinf o'quvchilari bilan o'tkazildi. Eksperiment doirasida badiiy matnlar asosida interfaol mashg'ulotlar, tarixiy obrazlarni tahlil qilishga oid topshiriqlar va esse yozishga yo'naltirilgan ijodiy ishlar qo'llanildi. Ushbu tajriba o'quvchilarining tarixiy materialni qanday darajada o'zlashtirganini aniqlash imkonini berdi.

So'rovnama va test usullari orqali o'quvchilarining tarix faniga bo'lgan qiziqlishi, tarixiy shaxslarga nisbatan tasavvurlari hamda voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqlikni tushunish darajasi baholandi. Bu usullar badiiy adabiyotlarning o'quv jarayoniga ta'sirini miqdoriy ko'satkichlar orqali ifodalash imkonini berdi.

Kontekstli o'qish usuli orqali har bir tarixiy davrga mos badiiy asarlardan tanlangan parchalar tarixiy manbalar bilan solishtirildi. Bu uslub o'quvchilarga tarixiy voqealarni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga imkon yaratdi.

2 UNESCO (2015). Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. ISBN: 978-92-3-100107-9. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000232993> Wineburg, S. (2018). Why Learn History (When It's Already on Your Phone). Chicago: University of Chicago Press. ISBN: 978-0-226-55087-1. DOI: 10.7208/chicago/9780226550888.001.0001 – See especially Chapter 3: "What Makes the Past Usable?", pp. 55–78.

3 Temur, A. Temur tuzuklari. Toshkent: Sharq, 2017. 45-48-betlar.

4 Qodiri, A. O'tkan kunlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018, 112-115-betlar. 5Qodirov, P. Yulduzli tunlar .Toshkent: Sharq, 2020, 203-205-betlar.

Rolli o'yinlar va dramalashtirish usullari yordamida o'quvchilar tarixiy shaxslarning obrazlari bilan "muloqot" qilish imkoniyatiga ega bo'lilar. Bu esa ularning empatiya qobiliyatini rivojlantirdi va tarixiy shaxslarni chuqurroq anglashga xizmat qildi.<sup>5</sup>

Interfaol loyihalar, xususan "Temuriylar davri madaniyati" mavzusidagi loyiha, tarix, adabiyot va san'at fanlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda keng dunyoqarash shakllanishiga yordam berdi. Ushbu loyihalar o'quvchilarni mustaqil izlanishga undab, ularning ijodiy yondashuvini rivojlantirdi.

Tadqiqot natijalari badiiy adabiyotlardan foydalanish o'quv jarayoniga sezilarli darajada ijobji ta'sir ko'r-satishini isbotladi. Jumladan, o'quvchilarning tarix faniga qiziqishi 42 % ga oshdi, tarixiy voqealarni tushunish darajasi 35 % yaxshilandi, shuningdek, milliy o'zlikni anglash darajasi ortdi.

Ushbu natijalar asosida quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Har bir tarixiy davrni o'rganishda unga mos badiiy asarlarni tanlash;
- Dars jarayonida badiiy matnlardan interfaol usullar asosida foydalanish;
- O'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rag'batlantirish.

Mazkur yondashuvlar o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki tarixiy voqealarni tahlil qila oladigan, milliy merosni qadrlaydigan shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida amaliy sinovlar va nazariy tahlillar orqali bir qator muhim xulosalarga erishildi. Ushbu natijalar badiiy adabiyotlardan tarix darslarida foydalanishning samaradorligini, shuningdek, ularning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ma'nnaviy dunyosiga ko'rsatadigan ta'sirini aniq namoyon etdi.


Avvalo, badiiy adabiyotlarning o'quv jarayonidagi didaktik ahamiyati yuqori ekanı isbotlandi. Masalan, 8–9-sinflarda o'tkazilgan test natijalariga ko'ra, badiiy asarlar yordamida o'quvchilarning tarixiy voqealarni idrok etish darajasi o'rtacha 35–40 % ga oshdi. Xususan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar XIX asr Qo'qon xonligi jamiyatni haqidagi tushunchalarini sezilarli darajada chuqurlashtirdi. Bu esa ularning ushbu davrni tushunish darajasining 68 % dan 89 % gacha ko'tarilishiga olib keldi. Ushbu natijalar badiiy adabiyotlarning nafaqat bilimlarni mustahkamlashda, balki o'quvchilarda tarixiy voqealarga emotsiunal munosabatni shakllantirishda ham samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Badiiy asarlar asosida o'tkazilgan tarix darslari o'quvchilarda milliy-ma'nnaviy qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bunday darslar 78 % o'quvchida milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirgan, madaniy merosga bo'lgan qiziqishni esa 3 barobar oshirgan. Ayniqsa, "Temur tuzuklari" asosida o'tilgan darslar tarixiy shaxslarga nisbatan hurmat hissini rivojlantirishda alohida samaradorlik ko'rsatdi.<sup>6</sup>

Statistik ma'lumotlar tadqiqot xulosalarini yanada ishonchli asoslab berdi. 111 nafar o'quvchi ishtirotida o'tkazilgan so'rovnama natijalariga ko'ra:

- 89 % o'quvchi badiiy asarlar tarixni o'rganishni qiziqarli qiladi, deb hisoblaydi;
- 76 % mavzuni bunday usul yordamida yaxshiroq eslab qolishini ta'kidladi;
- 68 % esa tarixiy shaxslar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishini bildirdi.

Diagramma. O'quvchilarning badiiy asarlar orqali tarixni o'rganishga munosabati



5 Kolmirzayev A. Tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik assoslari. T.: Fan, 2021.57-b.

6 Abdurahmonov, S. "Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning innovatsion usullari" // Pedagogik innovatsiyalar jurnalı, №4, 2021. – B. 45–52.

Ushbu ko'rsatkichlar badiiy adabiyotlarning tarix darslarining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning aqliy va hissiy qobiliyatlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari badiiy adabiyotlarning maktab ta'limalda tarix fanini o'qitishdagi o'rnnini asoslab berdi. Ular o'quvchilarning emotsiyalni va ma'naviy rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini ishonchli statistik dalillar bilan tasdiqlaydi.

Birinchidan, badiiy adabiyotlarning didaktik samaradorligi o'quvchilarning tarixiy faktlarni anglash darajasini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari asosida XIX asr O'rta Osiyo jamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan darslarda o'quvchilarning bu davrga oid tushunchasi 21 % ga ortgan. Bu esa badiiy matnlar nafaqat tarixiy voqealarni yodda saqlash, balki ularning mohiyatini chuqr anglashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, psixologik jihatdan ham badiiy adabiyotlar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ular o'quvchilarning diqqatini 40 % ga oshirib, ma'lumotlarni xotirada uzoq muddat saqlash imkonini beradi hamda tarix faniga bo'lgan motivatsiyani 2,3 barobar ko'taradi. Bunday yondashuv yosh avlodda quruq faktlarga emas, balki hikoya va obrazlar orqali bilim olishga nisbatan yuqori qiziqishni shakllantiradi.<sup>7</sup>

Uchinchidan, tadqiqotda sinab ko'rilgan metodik usullar orasida rolli o'yinlar, interfaol matn tahlili va fanlararo loyihamar eng samarali deb topildi. Bu usullar o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish, empatiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qildi.

To'rtinchidan, badiiy adabiyotlar milliy-ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ham yuqori samara berdi. Milliy asarlar o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirgan, madaniy merosga bo'lgan qiziqishni uch barobar oshirgan va tarixiy shaxslarga bo'lgan hurmat hissini sezilarli darajada mustahkamlagan. "Temur tuzuklari" asosidagi darslar tarixiy liderlarga nisbatan qiziqish va hurmatni shakllantirishda o'ziga xos natijalar berdi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim metodologik muammolar ham aniqlandi. Bular jumlasiga quydigilar kiradi:

- badiiy asarlarni dars mazmuniga moslashtirishda yuzaga keladigan murakkabliklar;
- o'quv vaqtini samarali taqsimlash zarurati;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ehtiyoji.

Ushbu muammolarni hal etish uchun har bir sınıf va yosh guruhiга moslashtirilgan maxsus metodik materiallarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Badiiy adabiyotlardan foydalanish tarix darslarini yanada samarali va mazmunli tashkil etishning muhim yo'li sifatida o'zini namoyon qildi. Tadqiqot natijalari badiiy adabiyotlarning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ma'naviy rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini yaqqol namoyon etdi.

Didaktik jihatdan badiiy matnlar tarixiy faktlarni oddiy yodlashdan ko'ra, ularni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchilarning tarixiy tushunish darajasi 8-sinfda 65 % dan 78 % ga, 9-sinfda esa 69 % dan 81 % gacha oshdi. Bu, badiiy adabiyotlarning tarixiy bilimlarni o'zlashtirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Psixologik jihatdan esa badiiy asarlar o'quvchilarning diqqatini 40 % ga oshiradi, o'qishga bo'lgan motivatsiyani 2,3 barobar ko'taradi va ma'lumotlarni xotirada uzoq muddat saqlashga yordam beradi. Bu holat ayniqsa yoshlarning tarixga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda muhim ahamiyatga ega.<sup>8</sup>


Metodik yondashuvlarning samaradorligi tadqiqotning muhim yutug'i sifatida namoyon bo'ldi. Rolli o'yinlar, interfaol matn tahlili va fanlararo loyihamar kabi metodlar o'quv jarayonini sezilarli darajada faollashtirdi. Ushbu usullar o'quvchilarga tarixiy voqealarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, tarixiy shaxslarning his-tuyg'ularini tushunish hamda shaxsiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, milliy-ma'naviy tarbiya sohasida badiiy asarlarning ta'siri alohida e'tiborga molikdir. Milliy adabiyotlar o'quvchilarning 78 % ida milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirdi, madaniy merosga bo'lgan qiziqishni uch barobar oshirdi va tarixiy shaxslarga nisbatan hurmat hissining sezilarli darajada ortishiga xizmat qildi. Bu holat badiiy adabiyotlarning o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.

7 Davronov, S.. Fanlararo integratsiya va tarix darslari samaradorligi. "Yosh pedagog" jurnalı, 2021. №4.

8 Ismoilova M. B. "O'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishda badiiy asarlarning o'rni." PEDAGOGS, 2024. <https://pedagogs.uz/ped/article/view/1578>

Tarixiy tushunish darajasining oshishi (8- va 9-sinflar)



### Takliflar

Kelajakda mazkur yondashuvni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Raqamli resurslardan keng foydalanish: interaktiv elektron kitoblar, audiomateriallar va multimedia dasturlari o'quv jarayonini qiziqarli va zamonaviy tusga keltiradi.
2. Yosh xususiyatlariiga mos metodikalarni ishlab chiqish: masalan, 8-sinf va 9-sinf o'quvchilari uchun alohida dasturlar ishlab chiqish orqali o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos yondashuv ta'minlanadi.<sup>9</sup>
3. Fanlararo integratsiyani kuchaytirish: tarix, adabiyot va san'at fanlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda keng dunyoqarash shakllanishi ta'minlanadi.
4. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish: badiiy adabiyotlardan foydalanish bo'yicha dars rejalariga mos aniq yo'riqnomalar tuzish o'qituvchilarning amaliy faoliyatini yengillashtiradi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotlar tarix darslarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ular o'quvchilarning bilim darajasini 35–40 % ga oshirish bilan birga, ularni vatanparvar, tanqidiy fikrlovchi hamda madaniy merosni qadrlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalaydi.

Ushbu yondashuvni kengaytirish va rivojlantirish orqali zamonaviy ta'limgning sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Badiiy adabiyotlar nafaqat o'tmishni o'rganish vositasи, balki kelajak avlodni tarbiyalashda muhim ko'priк vazifasini o'taydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov S. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning innovatsion usullari. Pedagogik innovatsiyalar, №4, 2021.
2. Ahmedov J. M. Abdulla Qodiriy va milliy tarixni ta'lilda o'rganish. Toshkent: Fan va texnika, 2019.
3. Bag'ibekova X. A. Badiiy adabiyot vositasida o'quvchilarda ma'nnaviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari. ORIYENS, 2025.
4. Davronov S. Fanlararo integratsiya va tarix darslari samaradorligi. Yosh pedagog, №4, 2021.
5. G'useynzoda M. X. Ta'lilda badiiy adabiyotlardan samarali foydalanish usullari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.

<sup>9</sup> Bagibekova X. A. "Badiiy adabiyot vositasida o'quvchilarda ma'nnaviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari." ORIYENS, 2025. <https://oriens.uz/uz/journal/article/badiiy-adabiyot-vositasida-oquvchilardamanaviyaxloqiyisifatlarni-rivojlantirishning-nazariyamaliy-asoslari/>

6. Ismoilova M. B. O'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishda badiiy asarlarning o'rni. PEDAGOOGS, 2024.
7. Karimov R. Tarix va adabiyot integratsiyasi: Nazariya va amaliyot. Toshkent: O'qituvchi, 2022.
8. Kenjayev T. O'zbek adabiyotidagi badiiy asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlan-tirish. Zenodo, 2024.
9. Nazarov B. Tarix fanini o'qitishda interfaol metodlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2023.
10. Nurmatov Sh. B. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning pedagogik jihatlari. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 2020, №3.
11. Nurmatov Sh. B. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish. 2020.
12. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018.
13. Qodirov P. Yulduzli tunlar. Toshkent: Sharq, 2020.
14. Rahimov E. Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lif. Toshkent: O'zbekiston, 2022.
15. Saidova L. Badiiy adabiyotlarning psixologik ta'siri. Psixologiya jurnali, №2, 2024.
16. Temur A. Temur tuzuklari. Toshkent: Shaxqo'sha, 2017.
17. To'rayeva M. Badiiy matn orqali tarixni o'qitish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
18. Toshmatova D. Milliy qadriyatlarni shakllantirishda adabiyotning roli. Madaniyat va san'at, №1, 2025.
19. Xolmirzayev A. Tarixiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari. Toshkent: Fan, 2021.
20. Yusupov N. Tarix va adabiyot fanlarini integratsiyalash usullari. Ilmiy tadqiqotlar, №3, 2023.
21. Johnson R., & Smith L. Using Literature to Teach History: Enhancing Student Engagement and Critical Thinking. Journal of Educational Research, 2017, Vol. 110, No. 2.
22. Kozlova I. A. Pedagogicheskie texnologii ispolzovaniya xudozhestvennoy literatury na urokakh istorii. Vestnik Pedago-giki, 2016, №5.
23. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2015.
24. Wineburg S. Why Learn History (When It's Already on Your Phone). Chicago: University of Chicago Press, 2018.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.